

YOSH AVLODGA TA'LIM TIZIMINING USTUVOR YO'NALISHLARINI

JORIY ETISH

*Bobonazarova Dilnoza Baxtiyor qizi*

*Toshkent shahar Uchtepa tumani*

*296-maktab matematika fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu ishda ta'lim tizimining tarixiy kelib chiqishi uning mazmuni tarbiy qilish uslublari va bu boradi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan davlat dasturlari, yurtboshimizning ilm fan rivojini yuksaltirishga qaratayotgan e'tiborlari, ta'lim tizimini tubdan o'zgartirish uchun qilayotgan say harakatlari haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, ilg'or texnologiyalar yordamida ta'lim tizimini yanada rivojlantirish o'quvchiga ta'lim berishning zamonaviy uslublarni targ'ib qilish va buning natijasida oliy ta'limni sifatini oshirib, malakali kadrlarni yetkazib berish masalalari ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** Moddiy ta'lim nazariyasi, zamonaviy bilim, malakali kadr, bilim, zamonaviy ta'lim

**Аннотация:** В данной работе рассматриваются историческое происхождение системы образования, ее содержание, методы обучения и государственные программы, реализуемые в нашей стране, внимание президента нашей страны к улучшению развития науки, его усилия по радикальному изменению системы образования. обсуждается система образования. Также были рассмотрены вопросы дальнейшего развития системы образования с помощью передовых технологий, продвижения современных методов обучения студентов и, как следствие, повышения качества высшего образования и обеспечения квалифицированными кадрами.

**Ключевые слова:** Теория материального образования, современные знания, квалифицированные кадры, знания, современное образование

**Annotation:** In this work, the historical origin of the educational system, its content, methods of education, and the state programs implemented in our country, the attention of our country's president to improve the development of science, and his efforts to radically change the educational system are discussed. is conducted. Also, the issues of further development of the education system with the help of advanced technologies, promotion of modern methods of teaching students, and as a result, increasing the quality of higher education and providing qualified personnel were considered.

**Key words:** Theory of material education, modern knowledge, qualified personnel, knowledge, modern education

Maktablarda berilgan ta'limning mazmuni tarixiy hamda sinfiy xususiyatga egadir. Jamiyat tarixiy taraqqiyotining hamma bosqichlarida maktablarda yoshlarga beriladigan ta'limning mazmuni, hajmi o'sha ijtimoiy tizimning iqtisodiy talab va ehtiyojlari, fan va texnika taraqqiyoti darajasi bilan belgilab kelingan. Ta'lim mazmunini tanlashga doir nazariyalar bor. Bu nazariyalarning ayrimlari uzoq o'tmishga borib taqalsa, ayrimlari XX asrda paydo bo'lgan. Moddiy ta'lim nazariyasi XIX asrning keyingi choragida kirib keldi. (1879 y, F.Doerfeld. «Didaktik meterializm» kitobi). Moddiy ta'lim nazariyasi asoschilari maktabning vazifasi

bolalarga imkoniyati yetguncha ko'proq bilim o'rgatishdan iborat deb hisoblardilar. Formal ta'lim tushunchasi 1791-yili (E.Shmidtning «Empirik psixologiya» kitobida) ishlatilgan. Formal ta'lim nazariyasi tarafdorlari maktabning vazifasini bolalar taraqqiyotida ko'rishadi. Ular maktabning ishi bilim berish emas, aksincha, bolalarda turli qobiliyatlarni rivojlantirishdan iborat, deb bilishadi. Bilimlarni esa har kim o'zi istaganicha, o'z qobiliyatiga yarasha o'rganadi. Boshlang'ich maktabdan universitet darajasigacha bo'lgan barcha jarayonlarda ta'lim kelajakka yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

Mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qabul qilindi. Mazkur qonunga asosan ta'lim sohasidagi asosiy prinsiplar, ta'lim tizimi, turlari va shakllari aniq belgilab qo'yildi. Qonunda ta'kidlanishicha, ta'limning mazmuni har bir o'sib kelayotgan yosh avlodni hayotga va dunyoviy demokratik jamiyat baxt - saodati yo'lidagi yuqori unumli mehnatiga, barkamol avlod qilib tayyorlash bilan belgilanadi. Ta'limning asosiy mazmuni uning vazifalarida oydinlashtiriladi. Asosiy vazifalarga aqliy tarbiya bilan bog'liq bo'lgan vazifalar kiradi. Ta'lim mazmuni o'quvchilarning o'qish jarayonida egallab olishi lozim bo'lgan hamda tizimga solingan bilim, malaka va ko'nikmalarning aniq belgilangan doirasi tushiniladi

Yurtimizda ta'lim tizimini tubdan o'zgartirish, uni xalqaro standartlarga integratsiyalash, mehnat bozori talabiga mos yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash bo'yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz ta'kidlaganidek: "Farzandlarimiz maktabdan qanchalik bilimli bo'lib chiqsa, yuqori texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyot tarmoqlari shuncha tez rivojlanadi, ko'plab ijtimoiy muammolarni yechish imkoni tug'iladi. Shunday ekan, Yangi O'zbekiston ostonasi maktabdan boshlanadi desam, o'ylaymanki, butun xalqimiz bu fikrni qo'llab-quvvatlaydi". Xulosa qilar ekanmiz, maqsad bitta: oliy ta'lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish hamda zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlarni tayyorlashdan iborat.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Alimova, Q. (2021). УПРАВЛЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫМИ ПРОЦЕССАМИ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ. Джизакское инновационное образование, 1(1). извлечено от <https://art.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/594>
2. Isankulova M. ., & Alimova Q. . (2021). YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATINI AMALGA OSHIRILISH MASALALARI. Научно-просветительский журнал "Наставник" извлечено от <https://phystech.jspi.uz/index.php/science/article/view/1180>
3. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni